



**LINGVODIDAKTIKANING DOLZARB  
MASALALARI  
I**

**TOSHKENT**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“LINGVODIDAKTIKANING DOLZARB MASALALARI”**

*mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to‘plami*  
(2022-yil 18-may)

**Toshkent – 2022**

**UDK: 81:301. 8:547.69.022 (354.1)**

**Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari. I.** Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2022. – 530 b.

Ushbu to‘plam Allsher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti Lingvodidaktika kafedrasidan tayyorlangan.

**Mas’ul muharrir:**

**L.R.Raupova** – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, professor.

**Taqrizchilar:**

**B.R.Mengliyev** – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasidan mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

**G‘.H.Hamroyev** – Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, dotsent, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:**

**Sh.S.Abdiraimov** – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasidan mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD).

**K.M.Mavlonova** – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasidan dots.v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD).

**I.A.Ishonxanova** – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasidan o‘qituvchisi.

**D.A.To‘rayeva** – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasidan katta o‘qituvchisi.

**H.M.Ortiqova** – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasidan o‘qituvchisi.

**F.A.Saidova** – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasidan o‘qituvchisi.

**V.E.Alimbekova** – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasidan o‘qituvchisi.

**D.O.Israfilov** – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasidan o‘qituvchisi.

**H.M.Baxtiyoro‘va** – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasidan magistranti.

Allsher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti Kengashining 2022-yil 10-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mansur A. Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri. T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2016. – 624 b.
2. Alouddin Mansur. Qur'oni karimning izohli tarjimasini. – Bishkek: 2001
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Qur'on va sunnatdagi ilmiy mo'jizalar”. “Hilol” nashriyot-matbaasi. 2019. 296 b.
4. Богуславского. Д. Н. Коран / Перевод и комментарии. М., 1995.
5. Валипур Али Реза. К проблеме лексической и прагматической адаптации слов при построении словаря и при переводе // Специализация, Россиян.Т., № 19. 2005. с.73–92.
6. Густерин П. В. Коран как объект изучения. — Саарбрюккен: ЛАП
7. Эjaz Naqvi. The Quran: With Or Against the Bible a Topic-by-topic Review for the Investigative Mind. — iUniverse, 2012. — S. 88. — 396 s.
8. Крачковского.И. Ю. Коран / Перевод и комментарии. — М., 1963.
9. Кулиева. Э. Р. Коран / пер. смыслов и коммент. — М., 2002
10. Николаева.К. Коран Магомеда / Пер. с араб. на фр. А. Биберштейна-Казимирского. Пер. с фр. М., 1864.
11. Османова. М.-Н. Коран / Пер. с араб. и коммент. М., 1995.
12. Пороховой Валерии. Коран / Перевод смыслов и комментарии. — М.,1991.
13. Саблукова. Г.С. Коран, законодательная книга мохаммеданского вероучения / Пер. с араб. Казан, 1878.
14. Tabariy. “جامع البيان”. Qohira., “Daru-n-nashr”. 1992.
15. Xudariy M. Nur-ad-yaqin. T.: 1994. B.345.
16. Hasanov.A. Makka va Madina tarixi. T.: 1995.
17. Qurtubiy. “جامع أحكام القرآن”. Qohira., “Kitab”. 1993.  
عجائب الهند. بزرك بن شهریار. مصر. الناشر مطبعة المعادة. تاريخ النشر 1 كتاب

### TOSHPO'LAT AHMAD SHE'RIYATI FONOSTILISTIKASI XUSUSIDA

**Asadov To'liqin Hamroyevich**

Buxoro davlat universiteti,  
o'zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.n.

**Azimova Aziza O'ktamovna**

Buxoro davlat universiteti, o'zbek tilshunosligi  
kafedrasini 1-bosqich magistri

#### **Annotatsiya**

*Mazkur maqolada Buxoro farzandi Toshpo'lat Ahmad ijodining ayrim xususiyatlari – shoir she'rlari fonostilistikasi, ushbu hodisani ta'minlovchi til va nutq vositalari haqida so'z boradi. Har bir nazariy fikr shoir ijodidan saralab olingan materiallar bilan keng dalillangan va munosabat bildirilgan.*

**Kalit so'zlar:** lingvostilistika, fonostilistika, fonografiya, alliterasiya, assonans, geminasiya, konnotativ ma'no.

## Annotation

*In this article we will talk about some features of the creativity of Bukhara child Tashpulat Ahmad – the phonostilistics of poet poems, language and speech tools that provide this phenomenon. Each theoretical idea was widely proven and reacted with materials from the work of the poet.*

**Key words:** *linguostilistics, phonostilistics, phonography, alliteration, assonance, hemination, connotative meaning.*

Bugungi kunda lingvopoyetika va uning tarkibiy qismlari – lingvostilistika, lingvodidaktika, lingvosemantika, lingvostilistika, lingvostatistika va h.k. sohalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ko'lami son va sifat jihatdan ancha oshdi. Hatto nasriy va nazmiy asarlarni lingvopoyetik nuqtayi nazardan alohida-alohida tahlil etish, lingvistik poyetika, lingvopoyetik tahlil jarayonlarini baholash [Mirzayev, 2006], lingvopoetik tahlil tamoyillarini belgilash [Mirzayev, 2006] borasidagi ishlar va shunga yondosh tadqiqotlarning son va sifat jihatdan oshib borayotganligi o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi kesimida lingvopoyetikaning nazariy jihatdan ancha yetilib ulgurganligini ko'rsatadi.

Bilamizki, badiiy asar tili, til hodisalarining uslubiy, badiiy-estetik jihatlari, ijodkorlarning badiiy til vositalari (fonetik, leksik-grammatik vositalar)dan foydalanish mahoratini tadqiq etish shu tilni har tomonlama rivojlantirishda qo'l keladi.

Ko'pgina iste'dodli ijodkorlar singari Buxoroning suyuqli farzandi Toshpo'lot Ahmad ham til hodisalarini chuqur his qilgan holda qalam tebratdi, natijada jozibador, teran she'riy misralar yaratdi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir Toshpo'lot Ahmad ijodi ko'hna va navqiron Buxoroyi sharif, shu mo'tabar maskan xalqi, yurt istiqloli, vatanga muhabbat, mehr-oqibat haqidadir. "...Shoir she'rlarida, – deb yozadi prof. Oxunjon Safarov, – xalqimiz kechmishining achchiq saboqlari, g'urur va oriyat, nomus va qadriyat, insof va diyonat, mehr va oqibat, andisha va nafosat, sabot va shafqat tuyg'ularini sharaflavchi ma'nolar mujassam. Uning she'rlari markazida turgan inson o'z makoni va zamonida javlon urayotgan, mehnati bilan bunyod etayotgan, erki uchun, ishq uchun kurashayotgan Insoni sharif. Uning "dili yorda-yu, qo'li ishda". Tarix yaratayotir u [Safarov, 1993].

Toshpo'lot Ahmad qalami o'tkir ijodkorlar qatorida til hodisalari, mazkur hodisalarning badiiylikni ta'minlashdagi vazifalaridan o'rinli foydalana oldi. Bu uning barcha ijod namunalari, xususan, she'riyatida yaqqol ko'rinadi. Biz mazkur tadqiqotimizda shoir she'rlarining ayrim fonopoyetik xususiyatlarini tahlil etishni maqsad qilib oldik.

Ma'lumki, til birliklarining denotativ ma'nosiga konnotativ ma'no yulkalash nafaqat leksik-grammatik shakllarda, balki fonetik va grafik belgilar orqali ham amalga oshiriladi. Fonetik vositalar bilan yuzaga chiqadigan rang-baranglik nutq tovushlarining so'zda paradigmatic va sintagmatic munosabatga kirishganida ro'yobga chiqib, uslubiy ahamiyat kasb etadi [Haydarov, 2017]. Talaffuzda tovushlarni ikkilantirish, takror qo'llash, tushirib qoldirish turlicha qo'shimcha ma'no bo'yoqlarini yuzaga chiqaradi. Bu hol nutq tovushlarining emasional-ekspressiv xususiyati bilan bog'liq jarayon sanaladi. Bu borada o'zbek tilshunosligida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan [Abduazizov, 1985]. Quvonarlisi shundaki, o'zbek tilshunosligida ham



grafik, ham fonetik vositalarning matniny imkoniyatlari monografik tadqiq etilgan [Haydarov, 2017]. Ijodkorlar o'z badiiy niyatini amalga oshirish maqsadida grafik vositalarning turli shakllaridan foydalanishga harakat qilishadi. Natijada fonografik vositalar fonopoyetika uchun material bo'lib xizmat qiladi, badiiy uslub me'yorlari ta'minlanishiga ko'mak beradi. Bunda fonetik vosita sifatida alliterasiya, assonans, geminasiya asosiy o'rin tutadi [Yuldashev, 2009]. Tadqiqotimiz obekti bo'lgan shoir Toshpo'lat Ahmad ijodida fonografik vositalar, jumladan, alliterasiya, assonans, geminasiyaning yorqin ko'rinishlari kuzatiladi.

Alliterasiya fonostilistik hodisa sifatida O.Axmanova tomonidan birmuncha aniq izohlanganligiga guvoh bo'lamiz. Mazkur hodisa bir xil yoki talaffuziga ko'ra bir-biriga yaqin tovushlarning, tovush birikmalarining so'z boshida, bo'gin boshida takrorlanib kelishi hamda ohangdorlikni hosil qilishi sifatida sharhlanadi [Axmanova, 1969]. Bundan esa muayyan bir poyetik maqsad ko'zlangan bo'ladi, albatta. Tadqiqotlarda mazkur hodisaning vertikal, gorizontallik ko'rinishlari ham talqin etiladi [Yuldashev, 2009]. Toshpo'lat Ahmad ijodida gorizontallik (misra yoki jumla ichida) alliterasiya namunalari kop uchraydi. Misollarni kuzatamiz: 1. *Qog'oz guli gul bo'lmas/ Gulning kuli kul bo'lmas/ Oshiq rost so'zlamasa/ Yor ko'ngliga yo'l bo'lmas.* ("Bir ko'rganda suydirding") Bu misralarda g hamda k tovushlarining uyg'unligi o'zaro ohangdorlikni ta'minlaganligiga guvoh bo'lamiz.

2. *Suluv soy, sohiling so'limdir, bahor keldimi? Majnuntol kokilin tarabdi, dildor keldimi? Suluv soy, so'zlagin, sohiling ne sabab so'lim/ Sevgimga guvoh bo'l, degan yor takror keldimi?* ("Muhabbat manzili")

3. *Sevganing ko'ziga tikilib turib/ Turganda tutdayin to'kilmay turib/ Titramay, chodayin bukilmay turib/ Yo eski qopdayin so'kilmay turib.* ("Oshiq yigitlarga")

Ko'rinadiki, mazkur misralarda ayrim tovushlar musiqiylikni ta'minlab, ritmni yuzaga chiqarishga xizmat qilgan. Shoir so'z qo'llash bilan bog'liq imkoniyatdan mohirona foydalana olgan.

Ma'lumki, so'zda bir undoshni atayin ikkilantirib keltirish konnotativ ma'noni hosil qiladi [Haydarov, 2017]. Mazkur hol, ya'ni geminasiya fonostilistik hodisasidan Toshpo'lat Ahmad ham unumli foydalangan. Shoir ayrim misralarida ma'lum bir estetik maqsad bilan, ya'ni ko'ngil ifodalarini to'laqonli yetkazish (ma'noni kuchaytirish, belgining me'yordan ortiqqligini ko'rsatish, harakatning davomiyligini ifoda etish) maqsadida unga murojaat etadi: 1. *Borliqqa tun cho'ksa, kun qora bo'lg'ay/ Hazinlik sasidan dil pora bo'lg'ay/ Tuhmat balosiga yo'liqsak magar/ Zamin ham, zamon ham ovvora bo'lg'ay.* ("Fasl ko'zlari")

2. *Shakkar deb kutganing og'u bo'ldi-ku/ Quvonch deb kutganing qayg'u bo'ldi-ku/ Ayniy oh chekadi, tani yuz pora/ Sitamlar domida qolgan Buxoro!* ("Buxoronoma")

3. *Rahmatt! Ammo etingiz oshkor: Kim yashagan avval bu uyda/ Ko'chganmi yo o'chgan ovozi?..* ("Dramatik she'r")

4. *Ajib iqbol ro'y berdi shunda/ Birov so'rab keldi uni eshikdan/ Tilida: Nima bo'пти? Xo'shsh?! Rangi qip-qizil anorday/ Tuzaladi!!* ("Hayotga qaytish")

Ushbu misralarda grafik belgilar bilan bog'liq konnotasiya ifodaning ta'sir quvvatini kuchaytiruvchi vosita (geminasiya) mavjud *shakkar, rahmatt, xo'shsh* kabi so'zlar bilan yuzaga chiqqan.

Bilamizki, fonostilistika uchun xilma-xil grafik belgilar ham xizmat qila oladi [Yaxshiyeva, 1996]. Bu hol zamonaviy adabiyot rivoji bilan birga yanada rangorang tus kasb eta boryapti. O'quvchi e'tiborini jalb etish maqsadi bilan ijodkor fonografik vositalar (jumladan, so'zda tovushlarni bir necha bor qo'llash, bo'g'inlarga ajratib yozish, misra ichida bosh harf yoki bosh harflarda yoki qalin shiriftda yozish)dan unumli foydalanishga harakat qiladi. Toshpo'lat Ahmad she'riyati ham bundan istesno emas, albatta: 1. *Bechoralar chora izlar har yondan/ Mansabdorlar tushmas also narvondan/ Tamagir-u poraxo' rning yo'li bir/ Pora izlar hatto Buyruq, Farmondan.* ("To'rtliklar")

2. *Yurtga borib salomimni ayt/ Sog'ichimni - payg'omimni ayt/ Tuprog'ini o'pib- o'pib ayt/ Ruhim kezhay O'ZBEKISTONGA.* ("Usmonxo'janing o'g'li Temurxo'jaga so'nggi vasiyati")

3. *Bu kunlarni endi alqangiz, Ahil bo'lish dilso'z-u jonso'z/ Erk, Iqbolni mangu saqlangiz/ Yo'lingizni yorisin NAVRO'Z.* ("Firatning navro'z qutlovi")

Tahlilga tortilgan she'riy misralarda *buyruq, farmon, o'zbekiston, navro'z* so'zlari ma'lum bir shakllardan ifodalanib, uslub yaratishga xizmat qilgan.

Xullas, Toshpo'lat Ahmad ijodi badiiyligini ta'minlashda leksik vositalar bilan birga fonografik vositalar ham faol qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz. Mazkur hodisalarning qo'llanishida hech qanday sun'iylik sezilmaydi. Fonostilistikaning materiali bo'lib xizmat qilgan har bir vositadan ijodkor o'rinli va mohirona foydalanilganligiga guvoh bo'lamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A. Fonostilistik vositalarning o'rganilishiga doir// O'zbek tili va adabiyoti. 1985, №2, 24-28-b.
2. Axmanova O. Slovar lingvisticheskix terminov. – M.: SE, 1969.
3. Haydarov A. Konnotativ ma'noning fonetik vositalarda ifodalanishi. Monografiya. –T.: Navro'z, 2017.
4. Mirzayev I. Lingvistik poetika va uning filologik tahlildagi o'rni. Ilmiy to'plam. – T.: Universitet, 2002, 20-23-b.
5. Mirzayev I. Lingvopoetik tahlil–ijodiy tafakkur sohibini tayyorlashning birlamchi omil ekanligi haqida. Ilmiy to'plam 3-tom. –T.: O'zMU nashri, 2006, 81-83-b.
6. Qobilova Z. O'zbek tilining fonosemantik vositalari. NDA. – T., 2008.
7. Yaxshiyeva G. O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. ND. – T., 1996.
8. Yuldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. DDA. – T., 2009.

Qadimgi turkiy til leksikasida yuzaga kelgan o'zgarishlarni "Devoni lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibatul haqoyiq" asarlari misolida solishtirib o'rganish .....	263
<b>Umurzoqova Marhabo</b>	
Baditiy matnda lisoniy shaxsni belgilashning gender omili .....	267
<b>Abdullayev Sarvar , Saydaliyev Muhammad Hoji</b>	
Qur'on – tarjima – qur'on ilmlari .....	271
<b>Asadov To'liqin, Azimova Aziza</b>	
Toshpo'lat Ahmad she'riyati fonostilistikasi xususida .....	276
<b>Yuldashova Nilufar Muxitdinovna</b>	
Til o'rganish maqsadi va ta'lim faoliyati sifatida "vazifa"ning ta'riflari .....	280
<b>Zaripov Rafiqjon</b>	
Etnosotsiopragsmatika maqsadi, vazifalari va tadqiq birliklari .....	283
<b>Suvonov Zavqiddin</b>	
Baditiy matnning lingvistik ekspertizasi o'rganilishiga doir .....	286
<b>To'rayeva Dildora</b>	
Tilshunoslikda shaxsiy yozishmalarning lingvistik tadqiqi .....	290
<b>Rozmetova Zamira, Mukhtarova Nozima</b>	
Lexicography and terminography as the applied branches of lexicology.....	294
<b>Abdullaeva Nodira</b>	
Contemporary research in functional linguistics .....	298
<b>Safarova Guzal</b>	
Ijtimoiy hayotda tabu hamda evfemizmlarning o'rni va bu masalalarga oid qarashlar.....	303
<b>Mukhamedova Lola</b>	
French military terms in english language and it's translation into uzbek.....	307
<b>To'raxo'jayeva A., Abdusattorova F.</b>	
Ijtimoiy-siyosiy leksemalarni mazmuniy maydon asosida o'rganish .....	310
<b>Turaeva Umida</b>	
Linguistic peculiarities and problems of legal translation. ....	313
<b>Сотимова Гулру</b>	
Особенности неологизмов в общественно-политической лексике.....	316
<b>Niyazova Gulnoraxon</b>	
O'zbek va ingliz detektiv asarlari tilning qiyosiy pragmatik tadqiqi .....	321
<b>Sultanova Shahnoza</b>	
Terminologik tizimning shakllanishi .....	326
<b>Zaripov Rafiqjon</b>	
Etnosotsiopragsmatikada amaliy mashg'ulotlarni tashkillashtirish, topshiriqlar va ular bilan ishlash .....	330
<b>Mardonova Sarvinoz</b>	
Kompozitsiya usulida yuzaga kelgan muallif nutqi neologizmlari xususida .....	334
<b>Bayjigitov Omonulla</b>	
Turkiy tillar frazeologiyasini tadqiq etish masalalari .....	338
<b>Alimbekova Vazira</b>	
Dardoq qishlog'ida ishlatiladigan uy-ro'zg'or buyumlari .....	343
<b>Nizomiddinova Dildora</b>	
Farg'ona viloyatidagi Bostonbuva ziyoratgohi – antroponekronimi xususida .....	347
<b>Saidova Farida</b>	
Hozirgi o'zbek lug'atchilik amaliyotida leksik sinonimlarga darajaviy yondashuv.....	349
<b>Ortiqova Hamida</b>	
Assotsiativ maydon va uning xususiyatlari .....	353
<b>Nurmanov Furqat</b>	
Baditiy asar tilning fonopoetik xususiyatlari .....	356